

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 224,3 trln. so'mni yoki 2018 – yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 217,2 trln. so'mni (102,4 %), o'rmon xo'jaligi – 5,7 trln. so'mni (101,8 %), baliq xo'jaligi – 1,4 trln. so'mni (127,0 %) tashkil qildi.

YaIM (YaQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 28,1 % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,7 f.p.ni tashkil etdi.

2020-yil 1-yanvar holatiga fermer xo'jaliklari soni 92,6 mingtani, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari – 5,0 mln.tani, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – 27,6 mingtani tashkil qildi.

Fermer xo'jaliklarining umumiy sonidan, paxtachilik va g'allachilik yo'nalishi bo'yicha – 40,0 mingtani, bog'dorchilik va uzumchilik – 31,0 mingtani, chorvachilik – 14,8 mingtani sabzavotchilik va polizchilik – 5,0 mingtani, boshqa yo'nalishlar bo'yicha – 1,8 mingtani tashkil etmoqda.

224,3

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
Qishloq, o'rmon va baliq
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining
hajmi, trln. so'm

01



217,2

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02



5,7

O'rmon xo'jaligi


03




1,4

Baliq xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,9 %i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,5 %i - o'rmon xo'jaligi, 0,6 %i - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (30,3 trln. so'm) va Andijon (24,4 trln. so'm) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (7,3 trln. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,1 trln. so'm) va Navoiy viloyatini (10,3 trln. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Respublika ko'rsatkichidan (102,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (106,6 %), Xorazm (105,7 %), Surxondaryo (104,6 %), Buxoro va Jizzax (104,3 %), Farg'ona (104,2 %), Andijon (103,4 %) viloyatlarida kuzatildi. Toshkent (93,8 %), Sirdaryo (101,2 %), Qashqadaryo (101,5 %), Samarqand (102,2 %) va Navoiy (102,3 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 13,5 % ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yuqoriligicha qolmoqda, Andijon, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,9 % va 9,1 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (3,2 %) Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,6 %) va Navoiy viloyatida (4,6 %) qayd etildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 215,7 trln. so'mni yoki 2018 – yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 108,3 trln. so'mni (103,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 107,4 trln. so'mni (101,7 %) tashkil qildi.


**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmida dehqonchilik va chorvachilik
mahsulotlarining ulushi**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,1 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 % – fermer xo'jaliklariga, 3,0 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ulushining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

2019 – yilning yanvar – dekabr oylari yakunlariga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida (33,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (78,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (10,3 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Navoiy viloyatida (18,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida (63,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xorazm viloyatida (1,1 %) qayd etildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Chorvachilik mahsulotlari



Dehqonchilik mahsulotlari



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqonchilik

2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 108,3 trln. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 50,2 % ni tashkil qildi.




Hosilni yig'ib olish. Respublikada kelgusida oziq-ovqat ekinlari yetishtirish hajmlarini ko'paytirish va o'stirilayotgan navlar turlarining ko'lamini kengaytirish va shu asosda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish bo'yicha tizimli choralarning amalga oshirilishi tufayli, 2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida 7 187,4 ming tonna (110,0 %) – don ekinlari, 2 950,9 ming tonna (101,3 %) – kartoshka, 9 945,5 ming tonna (101,9 %) – sabzavotlar, 1 922,2 ming tonna (104,6 %) – oziqbop poliz, 2 739,6 ming tonna (101,2 %) – mevalar, 1 595,2 ming tonna (100,3 %) – uzum ishlab chiqarildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqarilgan don ekinlari tarkibi




Jami yetishtirilgan don ekinlarining tarkibi tahlil qilinganda, ularning yetishtirish umumiy hajmining asosiy qismini yoki 85,2%ini boshqoqli don ekinlari tashkil etdi. Jami etishtirilgan don ekinlarining 5,7 % -makkajo'xori, 4,2 %-sholi, 3,6 % - dukkakli don va 1,3 % – boshqa don ekinlari hissasiga to'g'ri keladi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





O'zbekiston Respublikasi
hudulari bo'yicha **donli ekinlar**
yetishtirish hajmi, ming t.




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



O'sish sur'ati



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 9 945,5 ming t. sabzavotlar (2018–yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **sabzavot**
yetishtirish hajmi, ming t.


O'zbekiston Respublikasi	9 945,5
Andijon	1 588,2
Samarqand	1 569,2
Farg'ona	1 090,1
Surxondaryo	976,7
Toshkent	873,5
Namangan	811,1
Buxoro	728,9
Xorazm	586,0
Qashqadaryo	491,8
Jizzax	421,1
Navoiy	279,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	272,5
Sirdaryo	256,5

Kartoshka

Hajmi, ming t.




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

O'sish sur'ati



2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 950,9 ming t. kartoshka (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 83,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **kartoshka**
yetishtirish hajmi, ming t.


O'zbekiston Respublikasi	2 950,9
Samarqand	599,4
Andijon	365,8
Toshkent	319,8
Surxondaryo	312,5
Farg'ona	298,1
Namangan	271,3
Buxoro	215,2
Qashqadaryo	171,5
Xorazm	120,4
Navoiy	79,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75,1
Jizzax	65,9
Sirdaryo	56,9

Poliz



Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha
taqsimlanishi






2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 922,2 ming t. poliz (2018 yilning yanvar - dekabriga nisbatan 4,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ekinlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **poliz**
yetishtirish hajmi, ming t.



Mevalar va rezavorlar




2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 739,6 ming t. mevalar va rezavorlar (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, mevalar va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 60,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.





O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha
mevalar va rezavorlar
yetishtirish hajmi, ming t.

O'zbekiston Respublikasi	2 739,6
Andijon	633,9
Samarqand	334,8
Farg'ona	333,8
Buxoro	291,1
Namangan	274,3
Qashqadaryo	170,8
Surxondaryo	157,9
Xorazm	151,9
Toshkent	113,9
Navoiy	99,0
Jizzax	87,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	51,8
Sirdaryo	38,7

Uzum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 595,2 ming t. uzum (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 0,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi.



O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **uzum**
yetishtirish hajmi, ming t.



Chorvachilik





2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 107,4 trln. so'mni yoki 2018 – yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,8% ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 465,0 ming t. go'sht (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko'p), 10 710,8 ming t. sut (2,3 % ga ko'p), 7 757,4 mln. dona tuxum (4,0 % ga ko'p), 35,4 ming t. jun (2,3 % ga ko'p), 1 173,8 ming dona qorako'l teri (8,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi.

Go'sht



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 465,0 ming t. go'sht tirik vaznda (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish zarur.




O'zbekiston Respublikasi hududlari
bo'yicha **go'sht (tirik vaznda)**
yetishtirish hajmi, ming t.



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar






2019 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 10 710,8 ming t. sut (2018 yilning yanvar – dekabriga nisbatan 2,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,1%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha ishlab
chiqarilgan **sut** hajmi, ming t.



Tuxum




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 757,4 mln. dona tuxum (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 4,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha olingan
tuxum hajmi mln. dona






Baliq

Hajmi, ming t.



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha
taqsimlanishi


O'sish sur'ati




2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 115,2 ming t. (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 26,6 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 49,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha
ovlangan baliq hajmi, ming t.



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,9 %i fermer xo'jaliklariga, 83,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 13,2 %i fermer xo'jaliklariga, 55,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 30,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2020 – yilning 1 – yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 968,3 ming boshga yetdi.

2019 – yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 154,2 ming boshga (1,2 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh

O'zbekiston Respublikasi	12 968,3
Qashqadaryo	1 598,5
Samarqand	1 579,5
Buxoro	1 227,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 109,6
Andijon	1 052,8
Farg'ona	1 012,8
Surxondaryo	974,0
Xorazm	924,0
Toshkent	918,6
Jizzax	899,1
Namangan	706,4
Navoiy	502,7
Sirdaryo	462,8


2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, sigirlarning umumiy bosh soni 4 663,5 ming boshga yetdi.

2019 – yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 37,5 ming boshga (0,8 %) ko'paydi.

Sigirlar




**Bosh sonining
xo'jalik toifalari bo'yicha
taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 94,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni, ming bosh




2020 – yilning 1 yanvar holatiga, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 21 986,0 ming boshga yetdi.

2019 – yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 405,5 ming boshga (1,9 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari bo'yicha
taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 83,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.





O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **qo'y**
va echkilarning umumiy
bosh soni, ming bosh



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, otlarning umumiy bosh soni 247,3 ming boshga yetdi.

2019 – yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 4,8 ming boshga (2,0 %) ko'paydi.


Otlar



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 79,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.





O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, ming bosh



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, parrandalarning umumiy bosh soni 93 132,3 ming boshga yetdi.

2019 – yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 6 757,5 ming boshga (7,8 %) ko'paydi.

Parrandalar



2020 – yilning 1 – yanvar holatiga, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha
parrandalarning umumiy
bosh soni, ming bosh

O'zbekiston Respublikasi	93 132,3
Toshkent	19 611,5
Samarqand	14 564,2
Farg'ona	8 608,9
Andijon	8 014,4
Qashqadaryo	6 558,9
Xorazm	6 174,9
Buxoro	5 682,7
Namangan	5 668,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 524,3
Surxondaryo	4 455,7
Jizzax	3 574,5
Navoiy	3 031,6
Sirdaryo	2 662,2

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi boshqarmasi

• 71-230-81-11
• 71-230-80-53